

Sohaga baxshida umr

// 21.05.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sohaga-baxshida-umr>



May oyining so'nggi yakshanbasi Kimyogarlar kuni sifatida keng nishonlanadi. Bayram munosabati bilan uzoq yillar davomida mamlakatimiz kimyo sanoati rivoji uchun fidokorona xizmat qilib kelayotgan "O'zkimyosanoat" AJning fidoiy mutaxassislari haqida to'xtalib o'tamiz.

Yevgeniy Aleksandrovich Korjikov – "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari. Mehnat faoliyatini 1986-yili "Navoiyazot" korxonasida ishlab chiqarish birlashmasi ta'mirlash-mexanika sexi tokari sifatida boshlagan. Yevgeniy Aleksandrovich tokarlikdan keng ko'lamli loyihalar rahbarligigacha bo'lgan uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan.

Ayni kunlarda jamiyatning butun kimyo tarmog'ini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy ishlab chiqarishlarni ishga tushirish masalalari uchun mas'ul.

"O'zkimyosanoat" AJ jamoasi Yevgeniy Aleksandrovichni o'z kasbining mohir ustasi va bilimdoni, adolatli rahbar va samimiy inson sifatida biladi. Yevgeniy Aleksandrovichni kasb bayrami bilan samimiy tabriklaymiz va kelgusi ishlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati